

**QISHLOQ XO‘JALIGI MAXSULOTLARI MA’LUMOTLARINI TAHLIL
QILISHDA LOGISTIK XIZMATLARDAN FOYDALANISH
IMKONIYATLARI**

Qutlimuratov Yusup Qulbaevich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali

q_yusup@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida logistik xizmatlarni shakllantirishning nazariy, huquqiy asoslari va uning istiqbollari tahlil qilinadi. Agrosanoat majmuasida logistika majmuasi tizimini shakllantirish va uning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini samarali etkazib berish zanjirlarini ta’minalash imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. Agrosanoat majmuasida logistik xizmatlarni shakllantirishni amalga oshiriladigan bir nechta amallar va dolzarb masalalar haqida tahlil qilingan. Bunga qo‘chimcha qishloq xo‘jaligi maxsulotlari xaridi uchun ma’lumotlarni tahlil qilishning logistik xizmatlarini yordamchi axborot vositalari va ularning imkoniyatlari keltiriladi.

Kalit so‘zlar. logistika, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, logistika infratuzilmasi.

KIRISH

Bugungi kunda jaxon agrosanoat majmuasida yuk tashishni rivojlantirishga logistik xizmat ko‘rsatish uchun tizimli, kompleks yondoshuv, shu jumladan davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik yondashishni talab kilmogda. Shundan kelib chiqib qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ananaviy vositalari va usullari bilan bir qatorda milliy iqtisodiyotni boshqarishning yangi vositalari, jumladan, logistikaning o‘rni oshib bormoqda. Moddiy mahsulotlarni xarid qilish, tashish, saqlash va taqsimlash samaradorligini oshirishda logistikaning imkoniyatlari butun dunyoda tan olingan va inson faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan

qishloq xo‘jaligida ham qo‘llaniladi. Logistika resurslardan oqilona foydalanish, mahsulotni iste’molchilarga etkazish uchun sarflangan vaqt va mablag‘larni qisqartirishga olib kelishda asosiy vosita sifatida qaralib, unga tizimli yondashishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahonda logistik xizmatlar olib borishda moddiy oqimlarni sotib olish, tashish, saqlash va tarqatish samaradorligini oshirishda logistika imkoniyatlari butun dunyoda tan olingan va inson faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladi [1].

Transport-logistika xizmatlarini ko‘rsatish, transport-logistika markazlarini yaratish va logistika jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar faoliyat yuritayotgan korxonalar samarali faoliyati uchun eng jozibali va ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda.

Umuman logistikani, xususan, transport logistikasini rivojlantirishdagi kamchiliklar logistika zanjirlarining oqilona faoliyat yuritishini ancha murakkablashtiradi, bu esa mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar etkazadi. Shuni esda tutish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda logistika yalpi ichki mahsulotning 10-15% ta’minlaydi [2].

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etkazib berishda qo‘srimcha xarajatlar, hisob-kitoblarga ko‘ra, ko‘pincha 40% dan oshadi. Evropa mamlakatlari bo‘yicha o‘rtacha logistika xarajatlari 15% ni tashkil qiladi. Shunday qilib, logistika xarajatlarni ulami uch baravar kamaytirishi mumkin [3].

O‘zbekistonda Markaziy Osiyo mintaqasidagi birinchi va yagona transport axborot logistika internet portalı yaratildi [4]. Ushbu axborot resursi tadbirkorlar va transport kompaniyalari, shuningdek, yuk tashish v.h. xizmatlar majmuasini ko‘rsatuvchi kompaniya va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston respublikasi transport vazirligi huzuridagi transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o‘rganish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari

to‘g“risidagi qarori ishlab chiqilgan [5]. Agrosanoat majmuasida logistik xizmatlarni shakllantirish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun davlat dasturi asosiy dasturlarda, kichik dasturlarda va tadbirlarda amalga oshiriladigan quyidagi vazifalarni hal qilishni nazarda tutiladi:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarishni o‘sishini rag‘batlantirish;
- tuproq unumdorligini saqlash va tiklash uchun sharoit yaratish, qishloq xo‘jalik erlarining meliorativ holatini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarini tartibga solish samaradorligini oshirish;
- kichik biznes shakllarini qo‘llab-quvvatlash;
- texnik va texnologik modernizatsiya qilish, investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish va agrosanoat majmuasini innovatsion rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining rentabelligini o‘sishi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- qishloq xo‘jaligi sohasida axborot ta’mnoti tizimini takomillashtirish;
- agrosanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xom ashyo va oziq-ovqat bozorlarini tartibga solish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni ilmiy qo‘llab-quvvatlash;
- agrosanoat majmuasi sohasida boshqaruvni takomillashtirish;
- qishloq aholisining bandligi, hayot darajasi va sifatini oshirish.

Tahlillarga ko‘ra hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlarining 50% ga yaqini xorijga eksport qilinmoqda [6].

NATIJALAR


Yuqorida keltirilib o‘tilgan davlat dasturlarini amalga oshirishning asosiy tadbirlaridan birini amalga oshirishda qishloq xo‘jaligi sohasida axborot ta’mnoti tizimini takomillashtirishga ko‘plab yordamchi dasturiy vositalar yaratilishi kerak. Mintaqada fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish va etkazib berishga logistik xizmatlar kursatish uchun «Fermer shop» web tizimi ishlab chiqilgan. Bu

tizimda beshta asosiy ilovalar asosida ishslash mumkun [7]. 1-rasmda qishloq xo‘jalik maxsulotlar haqida ma’lumotlar olish sotib olish va sotish ishlarini yuritish mumkun.

The screenshot shows the homepage of the Fermer Shop website. At the top, there is a blue header bar with the text "Fermer Shop" and several menu items: "Bosh sah", "Ma'lumotlarni", "Önimler", "Fermer kabinet", and "Ro'yalar". Below the header, the main title "BIZDEN QANDAY ÖNİMLER TABA ALASIZ" is displayed. Underneath this title, there are two rows of product categories. The first row includes "Palu önimleri", "Sitrus önimleri", "Sut ham sut önimleri", and "Dan önimleri". The second row includes "Sharwashashiq jem önimleri", "Sharwa dan önimleri", "Miyweler", and "Aziqqa şop önimleri". Each category has a small icon next to its name.

1-rasm. Qishloq xo‘jalik mahsulotlar haqida ma’lumotlar ilovasi

Jismoniy va yuridik shaxslar «Fermer shop» web tizimi asosida fermerlar tomonidan qo‘yilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib olish imkoniyatiga ega. Tizimga ruyxatdan o‘tish orqali buyurtmalar berishlari mumkun va transport logistik xizmatlar olishlari mumkun bo‘ladi. Ma’lumotlarni tahlil qilish asosida qaror qabul qilishga logistik xizmat ko‘rsatishning grafik ko‘rinishlari keltiriladi (2-rasm).



2-rasm. Qaror qabul qilishga yordamchi umumiylar ma’lumotlar grafigi

MUHOKAMA

Umuman olganda, tadqiqot natijalari zamonaviy agrosanoat majmui qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda va ularni xarid qilish jarayonlarini yanada samaraliroq yuritish imkonini beruvchi yangi yondashuvlarini joriy etishni ko‘paytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Keltirilgan natijalar asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari haqidagi ma’lumotlar tahlili jismoniy va yuridik shaxslarning maxsulotlarni xarid qilish uchun qaror qabul qilishda samarali natijalar beradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, logistika qishloq xo‘jaligiga yordam berish, uning samaradorligini oshirish va mahsulotlarini iste’molchilarga etkazish uchun barcha imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa mazkur muammoni echishda, samarali echimlarni ishlab chiqishga va qishloq xo‘jaligi logistikasi sohasini rivojlantirishga yordam berish imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nosov A. L. (2016). Logistika v agropromishlennom komplekse. Nauchno-metodicheskiy elektronniy jurnal «Kontsept». 11, 5-10.
2. Gadjinskiy A. (2013). Logistika: Uchebnik. - M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov».
3. Lisenko E. (2020). Issledovanie logisticheskix zatrat kak instrument dostijeniya ekonomiceskoy ustoychivosti selskoxozyaystvennyx predpriyatiy. Ekonomika, predprinimatelstvo i pravo. 7, 1-5. DOI: 10.18334/epp.10.7.110613
4. www.logistika.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.02.2019. PF-5647-son/
<https://lex.uz/docs/4194107>
6. <https://uzts.uz/ru/investoram/eksportnyy-potencial>
7. <http://qutlimuratov.uz/logistika>